

---

## Harbiy vatanparvarlik tadbiri tashkil etildi

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barchamiz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masaladir. Ushbu dolzarb masala uzluksiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasidan iborat. Barchamizga ayvonki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi umumiy tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarda Vatanni fidokorona himoya qilishga tayyorlik va bunga qodirlikni shakllantirishga yo'naltirilgan. Uning ma'naviy-ma'rifiy va nazariy asosi Vatanni himoya qilish to'g'risidagi zamonaviy tegishli ilm-fan sohalarining xulosalari, xalqimizning Vatan va uni himoya qilish haqidagi tarixiy va zamonaviy amaliy tajribasi, ilmiy merosi hamda mazkur masala bilan bog'liq umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy talablar hisoblanadi. Jamiyatda vatanparvar va fidoyi insonlar ko'payishi natijasida ma'naviy-ma'rifiy hayotda hamda boshqa jabhalarda tub ijobiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Bugungi kunda tumanimizda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun tumanimizdagi 27-IDUMda "Veteran" baynalminalchi janchilar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilayotgani, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir ekanligi ta'kidlandi.

2022-05-24 19:00:56